O'ZBEKISTONDA SANOAT ISHLAB CHIQRISHI KONSENTRATSIYASINING HUDUDIY TAHLILI: VILOYATLAR VA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR BO'YICHA HERFINDAHL-HIRSCHMAN INDEKSI	839
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	



CHARM-POYABZAL SANOATI TARMOG'INING RIVOJLANISHI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI TO'G'RISIDA.....	847
Azimova Feruza Payziyevna, O. Maxmudov	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA RESURS EHTIYOJLARI.....	852
Arziqulova Oybachin Eshquvat qizi	
KADRLAR SALOHIYATINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	858
Xo'jaqulov Bobur Rustam o'g'li	



KADRLAR SALOHIYATINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Xo'jaqulov Bobur Rustam o'g'li

Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Email: bobur90@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0000-0002-7706-0023>

Annotatsiya: Mazkur maqolada kadrlar salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Unda kadrlar salohiyatining iqtisodiy mazmuni, inson kapitalini rivojlantirishdagi o'rni, mehnat bozori talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirish hamda malaka oshirish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari yoritilgan. Tadqiqotda kadrlar salohiyatini oshirishda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, raqamli ko'nikmalar, motivatsiya tizimi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining ahamiyati asoslab berilgan. Natijada kadrlar salohiyatini rivojlantirish iqtisodiy samaradorlik, mehnat unumdorligi va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: kadrlar salohiyati, inson kapitali, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, mehnat bozori, malaka oshirish, kompetensiya, raqamli ko'nikmalar, innovatsion boshqaruv, motivatsiya, dual ta'lim, davlat-xususiy sheriklik, mehnat unumdorligi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов повышения качества человеческого потенциала. Рассматривается экономическое содержание человеческого потенциала, его роль в развитии человеческого капитала, формирование компетенций, отвечающих требованиям рынка труда, и области совершенствования системы обучения. Исследование обосновывает важность образования, интеграции науки и производства, цифровых навыков, систем мотивации и механизмов государственно-частного партнерства в повышении качества человеческого потенциала. В результате установлено, что развитие человеческого потенциала является важным фактором повышения экономической эффективности, производительности труда и конкурентоспособности.

Ключевые слова: человеческие ресурсы, человеческий капитал, организационно-экономический механизм, рынок труда, повышение квалификации, компетенции, цифровые навыки, инновационное управление, мотивация, дуальное образование, государственно-частное партнерство, производительность труда.

Abstract: This article examines the issues of improving organizational and economic mechanisms for improving human capacity. It covers the economic content of human capacity, its role in the development of human capital, the formation of competencies that meet the requirements of the labor market, and the areas of improving the training system. The study substantiates the importance of education, science and production integration, digital skills, motivation systems, and public-private partnership mechanisms in improving human capacity. As a result, it was found that the development of human capacity is an important factor in increasing economic efficiency, labor productivity, and competitiveness.

Keywords: human resources, human capital, organizational and economic mechanism, labor market, advanced training, competence, digital skills, innovative management, motivation, dual education, public-private partnership, labor productivity.

KIRISH

Iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik bevosita inson kapitalining sifatiga, xodimlarning kasbiy hamda raqamli malakasiga tayanadi. Sanoat 4.0, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini ishlab chiqarishga joriy etish mehnat bozorida malaka talablarini o'zgartirmoqda. Bu holat kasbiy kompetensiyalarni doimiy ravishda yangilab borishni hamda ta'lim tizimini real iqtisodiyot ehtiyojlariga qat'iy moslashtirishni taqozo etadi.

Inson kapitaliga investitsiya yo'naltirish, korporativ o'qitish va dual ta'lim amaliyotlari iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi asosiy omillardir. Xodimlarning yuqori kasbiy tayyorgarligi bevosita mehnat unumdorligini o'stiradi va ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi. Shu sababli, kadrlar tayyorlashning institutsional mexanizmlarini optimallashtirish davlat iqtisodiy siyosatidagi markaziy vazifalardan sanaladi.

O'zbekistonda ushbu yo'nalishni isloh qilish bo'yicha aniq huquqiy mexanizmlar ishga tushirilgan. Xususan,



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni kadrlar salohiyatini oshirishning amaldagi qonuniy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur hujjat o'quv dasturlarini ish beruvchilar talabiga moslashtirish, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish hamda kadrlar tayyorlaydigan yagona texnikumlar tarmog'ini yaratish kabi amaliy choralarni belgilaydi.¹

Shunga qaramay, iqtisodiyot tarmoqlarida malakali mutaxassislar yetishmovchiligi hamda bitiruvchilarning amaliy ko'nikmalari va biznes ehtiyojlari o'rtasidagi nomutanosiblik saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni tatbiq etuvchi tarmoqlar uchun innovatsion yondashuvlar yetishmaydi. Korxonalarni kerakli mutaxassislar bilan ta'minlash va kadrlar malakasini amaliyotga bog'lagan holda tizimli ravishda oshirish tadqiqotning amaliy yechim talab etadigan asosiy masalasidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kadrlar salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda inson kapitali, mehnat bozori, kompetensiyaviy yondashuv, malaka oshirish tizimi va innovatsion boshqaruv nazariyalari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi.

G. Becker inson kapitali nazariyasida ta'lim, bilim, malaka va kasbiy tajribani iqtisodiy o'sishning fundamental omili sifatida asoslagan. Uning yondashuviga ko'ra, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar mehnat unumdorligini oshirib, uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Mazkur yo'nalishni davom ettirgan T. Schultz tadqiqotlarida inson kapitali jamiyatning ishlab chiqarish quvvatini oshiruvchi asosiy resurs sifatida talqin qilinadi. Muallif ta'lim va kasbiy tayyorgarlik xarajatlarini iqtisodiy investitsiya deb baholaydi va kadrlar salohiyatini rivojlantirishni iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning bosh sharti deb ko'rsatadi.

M. Porter o'zining raqobatbardoshlik nazariyasida korxonalar va hududlarning ustunligi malakali ishchi kuchi, innovatsion salohiyat hamda institutsional muhit darajasiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv kadrlar salohiyatini oshirish jarayonini faqat ta'lim tizimi doirasida emas, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi strategik omil sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi. P. Drucker esa bilim asoslangan jamiyat konsepsiyasida zamonaviy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bilimli va kreativ xodimlar ekanligini isbotlagan. Uning qarashlari kadrlar salohiyatini yuksaltirishda intellektual resurslar, kasbiy kompetensiyalar va innovatsion boshqaruv ustuvorligini ochib beradi.

D. McClelland tomonidan asoslangan kompetensiyaviy yondashuv nazariyasiga ko'ra, xodimlarning muvaffaqiyati faqatgina nazariy bilim darajasi bilan emas, balki amaliy ko'nikmalar, motivatsiya, tashabbuskorlik va kasbiy xulq-atvor majmuasi bilan belgilanadi. Bu tushuncha kadrlar salohiyatini baholashda amaliy tayyorgarlik va natijadorlik mezonlaridan foydalanishni talab etadi.

O'zbekistonlik olimlardan Q.X. Abdurahmonov, N.U. Arabov va G.K. Abduraxmonovalarning tadqiqotlarida mehnat resurslari, bandlik, mehnat bozori infratuzilmasi hamda inson kapitalini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Ularning ilmiy xulosalarida kadrlar salohiyatini oshirish mehnat bozori barqarorligi va samarali bandlikni ta'minlashning asosi sifatida keltiriladi. Shuningdek, M.Q. Pardayev, M.M. Muxammedov, I.S. Tuxliyev va Q.J. Mirzayevlarning ishlarida xizmat ko'rsatish sohasi, servis iqtisodiyoti, turizm va hududiy rivojlanishda malakali mutaxassislarning o'rni yoritilgan. Mazkur tadqiqotlar xizmatlar sifati va samaradorligi bevosita kadrlar malakasi hamda boshqaruv kompetensiyalariga bog'liqligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kadrlar salohiyatini oshirish iqtisodiy o'sish, mehnat unumdorligi va innovatsion rivojlanishning strategik omilidir. Shu sababli mazkur tadqiqotda kadrlar salohiyatini rivojlantirish tashkiliy, iqtisodiy, institutsional, innovatsion va raqamli mexanizmlarning o'zaro uyg'unlashgan tizimi sifatida o'rganiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kadrlar salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni tadqiq etishda bir qator ilmiy uslub va yondashuvlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etib, u kadrlar salohiyatini ko'p tarmoqli va dinamik rivojlanuvchi tizim sifatida o'rganish imkonini berdi.

Mavzuni yoritishda quyidagi aniq usullar qo'llanildi:

Iqtisodiy-statistik tahlil: Kadrlar salohiyati va mehnat resurslarining holatini xarakterlovchi miqdoriy ko'rsatkichlarni baholash va dinamikasini aniqlash uchun xizmat qildi.

Qiyosiy tahlil: Inson kapitali va kompetensiyaviy yondashuvlarga oid turli ilmiy maktablar va mualliflarning qarashlarini taqqoslash hamda samarali modellarni ajratib olish maqsadida ishlatildi.

Ilmiy abstraksiya: O'rganilayotgan obyektning ikkinchi darajali omillarini chetga surgan holda, tashkiliy-

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.10.2024 yildagi PF-158-son. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7166588>

iqtisodiy mexanizmlarning eng muhim va barqaror aloqalarini shakllantirishda qo'llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini inson kapitali, mehnat bozori va malaka oshirish tizimiga oid nazariy manbalar, rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda tegishli ilmiy tadqiqot natijalari tashkil etadi. Metodologik yondashuvlar doirasida amalga oshirilgan tahlillar yakuni bo'yicha kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kadrlar salohiyatini rivojlantirish iqtisodiy o'sish, mehnat unumdorligi va raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish sharoitida malakali, kreativ va zamonaviy kompetensiyalarga ega kadrlarni shakllantirish iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli kadrlar salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

1-jadval

Kadrlar salohiyatining asosiy tarkibiy elementlari va ularning iqtisodiy ahamiyati

№	Tarkibiy elementlar	Mazmuni	Kadrlar salohiyatiga ta'siri	Iqtisodiy natijasi
1	Bilim darajasi	Nazariy va amaliy bilimlar majmui	Kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi	Mehnat unumdorligi ortadi
2	Kasbiy malaka	Muayyan kasb bo'yicha amaliy tayyorgarlik	Ish sifatini yaxshilaydi	Ishlab chiqarish samaradorligi oshadi
3	Kompetensiyalar	Ko'nikma, tajriba va kasbiy moslashuvchanlik	Raqobatbardosh mutaxassis shakllanadi	Mehnat bozori talabiga moslik kuchayadi
4	Innovatsion salohiyat	Yangicha fikrlash va innovatsion yondashuv	Innovatsion faoliyat rivojlanadi	Innovatsion mahsulot va xizmatlar hajmi oshadi
5	Raqamli ko'nikmalar	AKT va raqamli texnologiyalardan foydalanish qobiliyati	Raqamli transformatsiyaga moslashuvni kuchaytiradi	Boshqaruv va ishlab chiqarish tezkorligi oshadi
6	Motivatsiya	Moddiy va nomoddiy rag'batlantirish tizimi	Mehnatga qiziqish va tashabbuskorlikni oshiradi	Ish samaradorligi va natijadorlik kuchayadi
7	Kreativ fikrlash	Muammolarga innovatsion yechim topish qobiliyati	Yangi g'oyalar shakllanishini ta'minlaydi	Korxonalar raqobatbardoshligi oshadi
8	Moslashuvchanlik	Bozor va texnologik o'zgarishlarga tez moslashish	Kasbiy barqarorlikni ta'minlaydi	Iqtisodiy xavflar kamayadi


1-jadvalda kadrlar salohiyatining asosiy tarkibiy elementlari hamda ularning iqtisodiy ahamiyati tizimli ravishda yoritilgan. Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy iqtisodiyotda kadrlar salohiyati faqatgina bilim yoki malaka bilan emas, balki kompetensiya, innovatsion fikrlash, raqamli ko'nikmalar va motivatsiya kabi omillar bilan ham belgilanadi. Tahlillarga ko'ra, bilim va kasbiy malaka inson kapitalining asosiy bazasini tashkil etadi. Mazkur omillar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, amaliy ko'nikmalar bilan boyitilgan kasbiy tayyorgarlik tizimi iqtisodiyot tarmoqlarida samaradorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi. Jadvalda kompetensiyalar alohida tarkibiy element sifatida ajratilgan bo'lib, bu xodimlarning mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini ifodalaydi. Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy iqtisodiyotda yuqori raqobatbardosh mutaxassislarni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Innovatsion salohiyat va kreativ fikrlash esa yangi texnologiyalarni joriy etish, innovatsion mahsulotlar yaratish hamda boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini jadallashtirish imkonini beradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli ko'nikmalar strategik ahamiyat kasb etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, tezkorlik va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Motivatsiya va moslashuvchanlik omillari esa xodimlarning mehnatga qiziqishi, tashabbuskorligi hamda texnologik va institutsional o'zgarishlarga moslashuvini ta'minlaydi. Bu holat iqtisodiy xavflarni kamaytirish va korxonalarining barqaror faoliyat yuritishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



2-jadval
Kadrlar salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar tizimi

№	Mexanizmlar	Amalga oshirish yo'nalishlari	Tashkiliy-iqtisodiy ahamiyati	Kutilayotgan natijalar
1	Dual ta'lim tizimi	Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi	Nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlaydi	Amaliy ko'nikmaga ega kadrlar shakllanadi
2	Korporativ ta'lim	Korxonada ichki malaka oshirish tizimi	Xodimlarning kasbiy salohiyatini oshiradi	Mehnat unumdorligi ortadi
3	Raqamli ta'lim platformalari	LMS, onlayn kurslar va masofaviy ta'lim	Raqamli kompetensiyalarni rivojlantiradi	Zamonaviy ko'nikmalar shakllanadi
4	Motivatsiya tizimi	KPI, bonus va rag'batlantirish mexanizmlari	Mehnatga qiziqishni oshiradi	Ish samaradorligi kuchayadi
5	Davlat-xususiy sheriklik	Ta'lim va biznes hamkorligi	Mehnat bozori talablariga moslashuvni ta'minlaydi	Raqobatbardosh kadrlar tayyorlanadi
6	Innovatsion boshqaruv	Zamonaviy HR texnologiyalari	Kadrlar boshqaruvini takomillashtiradi	Boshqaruv samaradorligi oshadi
7	Mentorlik tizimi	Tajribali mutaxassislarni jalb qilish	Kasbiy tajriba almashinuvini kuchaytiradi	Professional kompetensiyalar rivojlanadi
8	Uzluksiz ta'lim tizimi	"Life-long learning" konsepsiyasi	Kadrlarning doimiy rivojlanishini ta'minlaydi	Moslashuvchan va innovatsion kadrlar shakllanadi

2-jadvalda kadrlar salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar tizimi va ularning iqtisodiy ahamiyati yoritilgan. Jadval ma'lumotlari zamonaviy iqtisodiyotda kadrlar salohiyatini rivojlantirish ko'p bosqichli va integratsiyalashgan tizim asosida amalga oshirilishini ko'rsatadi. Tahlillarga ko'ra, dual ta'lim tizimi kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tizim ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlab, nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Natijada mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar shakllanadi. Korporativ ta'lim va uzluksiz ta'lim tizimlari xodimlarning kasbiy rivojlanishini muntazam qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, "life-long learning" konsepsiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim tizimi xodimlarning zamonaviy texnologiyalar va innovatsion jarayonlarga moslashuvchanligini oshiradi. Jadvalda raqamli ta'lim platformalari alohida mexanizm sifatida keltirilgan bo'lib, ular raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. LMS platformalari va masofaviy ta'lim texnologiyalari bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, kadrlar tayyorlash samaradorligini oshiradi. Motivatsiya va rag'batlantirish tizimlari esa xodimlarning mehnatga qiziqishini oshirish, tashabbuskorligini rag'batlantirish va mehnat unumdorligini kuchaytirishda muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. KPI va natijadorlikka asoslangan boshqaruv tizimi iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Davlat-xususiy sheriklik va innovatsion boshqaruv mexanizmlari ta'lim tizimi hamda biznes sektori o'rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi. Bu esa iqtisodiyot tarmoqlarining zamonaviy ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi kadrlarni tayyorlash imkonini beradi.



1-rasm. Kadrlar salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi

1-rasmda kadrlar salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning asosiy bosqichlari va ularning o'zaro bog'liqligi tizimli ravishda aks ettirilgan. Mazkur mexanizm mehnat bozori talablarini aniqlashdan boshlab, ta'lim va malaka tizimini shakllantirish, amaliyot integratsiyasi, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, motivatsiya mexanizmlarini takomillashtirish hamda yakuniy iqtisodiy samaradorlikka erishish jarayonlarini qamrab oladi. Rasmning birinchi bosqichida mehnat bozori tahlili asosida kadrlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash jarayoni ko'rsatilgan. Ushbu bosqich iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar kesimida mavjud hamda istiqboldagi kasblar bo'yicha ehtiyojlarni prognoz qilish imkonini beradi. Bu esa kadrlar tayyorlash tizimini bozor talablariga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi bosqichda ta'lim va malaka tizimini shakllantirish mexanizmi aks ettirilgan bo'lib, unda kompetensiyaviy yondashuv, malaka standartlari va moslashuvchan o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarurligi asoslangan. Mazkur yo'nalish kadrlarning nazariy bilim va amaliy tayyorgarligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Rasmda dual ta'lim va amaliyot integratsiyasi alohida tarkibiy qism sifatida keltirilgan. Bu mexanizm ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali talabalarni amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlash imkonini beradi. Ayniqsa, korxonalarda amaliyot va stajirovka tizimini yo'lga qo'yish mehnat bozoriga mos yuqori malakali kadrlarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli va innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmi zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashishda strategik ahamiyat kasb etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, raqamli ko'nikmalarni shakllantirish va innovatsion fikrlashni rivojlantirish kadrlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Motivatsiya va rag'batlantirish mexanizmlarida moddiy va nomoddiy rag'batlantirish, KPI asosida baholash hamda kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish ko'zda tutilgan. Bu esa xodimlarning mehnatga qiziqishini oshirib, mehnat unumdorligini kuchaytiradi. Rasmning yakuniy qismida mazkur mexanizmning asosiy natijalari sifatida mehnat unumdorligi, xizmatlar sifati, innovatsion mahsulotlar hajmi va iqtisodiy raqobatbardoshlikning oshishi ko'rsatilgan. Bu holat kadrlar salohiyatini rivojlantirish iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, rasmda qo'llab-quvvatlash va monitoring tizimi ham aks ettirilgan bo'lib, normativ-huquqiy asoslar, moliyaviy ta'minot, davlat-xususiy sheriklik va doimiy monitoring mexanizmlarining mavjudligi tizim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kadrlar salohiyatini oshirish iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Inson kapitalining sifati iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligi, xizmatlar sifati va boshqaruv samaradorligiga



bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar natijasida kadrlar salohiyati bilim, kasbiy malaka, kompetensiya, innovatsion fikrlash, raqamli ko'nikmalar va motivatsiya kabi o'zaro bog'liq tarkibiy elementlardan tashkil topishi aniqlandi. Mazkur elementlarning uyg'un rivojlanishi yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida dual ta'lim, korporativ ta'lim, raqamli platformalar, mentorlik tizimi, davlat-xususiy sheriklik va innovatsion boshqaruv mexanizmlarining kadrlar salohiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berildi. Ayniqsa, ta'lim–fan–ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish mehnat bozori talablariga mos amaliy ko'nikmaga ega mutaxassislar tayyorlashning muhim omili ekanligi aniqlandi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va innovatsion fikrlashni shakllantirish kadrlar tayyorlash tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli uzluksiz ta'lim va "life-long learning" konsepsiyasini rivojlantirish zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- kadrlar tayyorlash tizimida dual ta'lim mexanizmlarini keng joriy etish;
- raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini takomillashtirish;
- korxonalarda korporativ ta'lim va mentorlik tizimini rivojlantirish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish;
- mehnat bozori ehtiyojlari asosida kasbiy kompetensiyalar monitoringini yo'lga qo'yish;
- motivatsiya va KPI asosidagi boshqaruv mexanizmlarini keng joriy etish.

Umuman olganda, kadrlar salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish inson kapitali sifatini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini jadallashtirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
2. Schultz T.W. Investment in Human Capital // American Economic Review. – 1961. – Vol. 51. – No. 1. – P. 1–17.
3. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985.
4. Drucker P. Post-Capitalist Society. – New York: Harper Business, 1993.
5. McClelland D. Testing for Competence Rather Than Intelligence // American Psychologist. – 1973. – Vol. 28. – No. 1. – P. 1–14.
6. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2019.
7. Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanishi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
8. Pardayev M.Q., Muxammedov M.M. Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
9. Mirzayev Q.J. Inson kapitalini boshqarishning zamonaviy yo'nalishlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.10.2024 yildagi PF-158-son. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7166588>
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari. – Toshkent, 2024.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100